

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

XALIMJANOV DILSHOD ERGASHBEKOVICH

MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGIGA ERKIN
IQTISODIY ZONALAR TA'SIRINI OSHIRISHNING NAZARIY
ASOSLARI

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Economical Science**

Xalimjanov Dilshod Ergashbekovich

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga erkin iqtisodiy zonalar ta'sirini
oshirishning nazariy asoslari..... 3

Халимджанов Дилшод Эргашбекович

Теоретические основы повышения влияния свободных экономических
зон на конкурентоспособность национальной экономики..... 27

Khalimjanov Dilshod Ergashbekovich

Theoretical foundations for increasing the influence of free economic zones
on the competitiveness of the national economy..... 53

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 58

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

XALIMJANOV DILSHOD ERGASHBEKOVICH

MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGIGA ERKIN
IQTISODIY ZONALAR TA'SIRINI OSHIRISHNING NAZARIY
ASOSLARI

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4308 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim tarmog'ida (www.zivonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Zikriyayev Zokir Mamirovich**
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar **Abdullayev Suyun Artiqovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmuradovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "11" 07 soat 12 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.


Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1710 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz)


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "27" 06 kuni tarqatildi.

(2025-yil "27" 06 dagi 79 raqamli reestr bayonnomasi).




S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor


B.E. Mamaraximov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash Ilmiy kotibi, i.f.n., professor


U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish, shu orqali kirib kelayotgan investitsiyalar hajmini oshirish asosida mamlakatlar raqobatbardoshligini oshirish ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda. Xalqaro tashkilotlar ma‘lumotlariga asosan, “dunyoda 3,5 mingdan ziyod erkin iqtisodiy zonalar bo‘lib, ular 140 mamlakatda joylashgan. Butun dunyodagi erkin iqtisodiy zonalarda 70 millionga yaqin insonlar mehnat qiladi”¹. Bu esa xorijiy investitsiyalarni eng qulay shartlar asosida jalb qilish, mamlakatlarda investitsiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan innovatsion instrumentlarning turli ko‘rinishlari yaratilishiga sabab bo‘lmoqda.

Jahonda mamlakatlar raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotini barqarorlashtirishda erkin iqtisodiy zonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish muammolariga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Erkin iqtisodiy zonalar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy, raqobatbardosh, eksportga yo‘naltirilgan tayyor sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni ta‘minlash maqsadlarida tashkil etilishi uslubiyo‘tini takomillashtirish masalalari bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Bugungi globallashtirish jarayonlari va bozor munosabatlarining chuqurlashuvi sharoitida har bir davlat o‘z milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta‘minlash, iqtisodiy o‘r‘ish sur‘atlarini barqaror saqlash hamda tashqi iqtisodiy faollikni kuchaytirish yo‘lida samarali iqtisodiy siyosat yuritishga intilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta‘minlash, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini rivojlantirish vazifalari ko‘p jihatdan iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va mahalliy mineral xom-ashyo resurslar negizida yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishga alohida e‘tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish, investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha, “pastdan-yuqoriga” tamoyili asosida, yangi tizimni yo‘lga qo‘yish”² vazifalari belgilab berilgan. Binobarin, mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilish, mamlakatlarni rivojlantirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish va aholi turmush darajasi, moddiy farovonligini oshirishga qaratilganligini hisobga olib erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish, ularni rivojlantirish masalasi hozirda davlat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimizga yo‘naltirilgan investitsiyalar ko‘lami, tahlili, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishni nazarda tutishi asosida uning rivojlanishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etishni

¹<http://www.uz/uz/post/1637>

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida // www.lex.uz.

rivojlantirishni hisobga olgan holda kompleks tadqiq etishni talab etib, mazkur tadqiqot ishining dolzarbligi ham shular bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 28-yanvardagi PF-5643-son «Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 21-dekabrdagi PF-5600-son «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2020-yil 29-dekabrdagi PQ-4937-son «O'zbekiston Respublikasining 2021-2023-yil larga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 29-apreldagi PQ-4300-son «Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirish asosida erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishning nazariy va amaliy muammolari xorijiy hamda MDH mamlakatlari olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Jumladan, xorijiy iqtisodchi olimlardan A.Smit, D.Rikardo, T.Farole, J.X. Zhan, D.Z. Zeng, M.Guangven, A.Aggarval va boshqa olimlarning asarlarida erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishning nazariy asoslari o'z ifodasini topgan³.

Mamlakatga investitsiyalarni jalb qilish, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish tartibi va uning samaradorligini oshirish kabi masalalar MDH mamlakatlari olimlaridan K.Babagulov, A.Esentugelov, E.Avdokushin, V.Popov, E.A.Matushevskaya, Yu.Komlev, A.X. Evstafeva, V.G. Vishnyakov va boshqalar o'z hissalarini qo'shganlar⁴.

³Смит А., Рикардо Д. Сочинения // Классика экономической мысли. — М.: ЭКСМО Пресс, 2000. — 155с.; Farole, T. (2011). Special economic zones in Africa: comparing performance and learning from global experience. Directions in Development; trade. World Bank;; Zhan, J. X., J. Karl (2016). "Investment Incentives for Sustainable Development" (<https://world.investmentforum.unctad.org/>); Guangwen M. The Theory and Practice of Free Economic Zones: A Case Study of Tianjin, People's Republic of China // Doctoral Thesis, Ruprecht-Karls University of Heidelberg, Germany, 2003.; Аггарвал А. "Экспорт жарында zonalarining ishlashi: qiyosiy tahlil Shri-lanka va Bangladesh" Xalqaro iqtisodiy munosabatlar (ICRIER). — Dehli, 2015.

⁴Бабугулов К., Есентугелов А. Концепция создания и функционирования свободных экономических зон в Республике Казахстан. — Алматы, 2012. С.54-59.; Авдокушин Е.Ф. Свободные (специальные) экономические зоны. - М., 2013.; Papava Vladimir. The Immortal idea of a free economic zones, Georgian Foundation for Strategic and International Studies, 1-16 p. 2007; Матушевская Е. А. Формирование комплексного подхода к оценке эффективности функционирования свободной экономической зоны// Экономика региона. -2018. Т. 14, вып. 3. - С. 870-883; Комлев Ю. Свободные экономические зоны: зарубежный опыт. — Алма-Ата, 2006. Евстафьева А.Х. Обеспечение экономической безопасности территорий в условиях реализации стратегии пространственного развития Российской Федерации. // Журнал российского права. 2013. № -3 С.

Iqtisodiy islohotlar sharoitida investitsiya jarayonlari, mamlakat iqtisodiyotida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish rivojlanishidagi turli jihatlarini B.B. Berkinov, A.V. Vaxabov, Sh.X. Xajibakiyev, N.G. Muminov, S.S. Mirzaliyeva, N.R. Rajabov, Sh.I. Mustafoqulov, M.A. Raimjonova, A.A. Sobirov, D.T. Kamilov, O'.A. Haydarov, B.B. Valiyev, M.A. Abdusalyamov, Sh.H. Nazarov, A.R. Xoliqulov va boshqa bir qancha olimlar tomonidan yoritilgan⁵.

Xususan, M.A. Abdusalyamov ta'kidlaydi, erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda klasterlashuv, modernizatsiya va ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish imkoniyatlarini yaratadi. U EIZni xorijiy investitsiyalar oqimi va innovatsiyalarni jalb qilishda asosiy vosita deb biladi.⁶

Sh.H. Nazarov ta'kidlaydi, erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) O'zbekiston milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda strategik vosita bo'lib xizmat qiladi. U EIZni yangi texnologiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish va xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratish vositasi deb hisoblaydi.⁷

Xoliqulov EIZni eksportni rivojlantirishning asosiy poydevori sifatida ko'radi. U EIZ doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo'lishini, bu esa milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.⁸

Erkin iqtisodiy zonalarining rivojlanishi investitsiyalar jalb qilishning samaradorligi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga bo'lgan ta'sirini o'rganish, erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilishning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish bilan bog'liq jihatlarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish va tegishli takliflar ishlab chiqildi.

⁵Berkinov B.B. va b. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. – T.: Iqtisod, 2011.- 128 b.; Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. –T.: Moliya, 2010. 180-b.; Mirzaliyeva S.S. Erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishning xorij tajribasi: I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. TDIU, 2001. 28-b.; Rajabov N.R. Investitsion muhit jozibadorligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar 2020. №4, -120 b.; Mustafoqulov Sh. Совершенствование научно-методологических основ повышения привлекательности инвестиционной среды в Узбекистане. Автореферат докторской (DSc) диссертации по экономическим наукам. БФА РУз, 2017. 57 с.; Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslar, hozirgi holati va istiqbollari "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 3, 2019 йил 14.; Собиров А.А. Совершенствование механизмов управления и регулирования привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. Автореферат докторской (DSc) диссертации по экономическим наукам. Т.: Ташкентский государственный экономический университет, 2019. — С. 85-87.; Haydarov O'.A. "Milliy iqtisodiyot doirasida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish" – T.: 2020. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. -14 b.; Kamilov D.T. Hududlarda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish. I.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent: TDIU, 2021.-25 b.; Valiev B.B. O'zbekiston hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi. I.f.f.d (DSc) diss.avtoreferati. TDIU. 2021 -23

⁶ Abdusalyamov M.A. Erkin iqtisodiy zonalar iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil sifatida, Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 2020, № 6. – B. 55-59.

⁷ Nazarov Sh.H. O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalar rivojlanishining strategik yo'nalishlari, Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021, № 5. – B. 12-16.

⁸ Xoliqulov A.R. Eksport faoliyatini rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarining roli, TDIU ilmiy axborotnomasi, 2020, № 3. – B. 47-51.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalarning o'rini kengaytirishning nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mamlakat raqobatbardoshligini oshirish nuqtai nazaridan erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etishning nazariy jihatlari o'rganish asosida nazariy qarashlarni umumlashtirish;

erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning huquqiy asoslari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish;

iqtsodiyotga jalb qilingan investitsiyalardan foydalanish holatini tahlil qilish asosida mamlakatda mavjud muammolarni aniqlash;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish tajribalari va ularning ilg'or tomonlaridan foydalanish;

mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda iqtisodiy zonalar tashkil etish samaradorligini oshirish istiqbollarga doir ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti erkin iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini oshirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, statistik-iqtisodiy va iqtisodiy-matematik modellashtrish, sotsiologik so'rovnoma, taqqoslama va tarkibiy tahlil hamda qator boshqa usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish" tushunchasining mazmuni mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish va samaradorligini ta'minlash, iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda kengaytirilgan mustaqillikka va boshqaruvning erkin rejimini ta'minlashning uzviy omili jihatidan takomillashtirilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish asosida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etishning umumiy tamoyillari mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi ma'muriy-tashkiliy tadbirlar, zamonaviy infratuzilma hamda ta'lim va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash choralari o'zaro muvofiqlashtirish jihatidan takomillashtirilgan;

Sirdaryo viloyatida erkin iqtisodiy zonalarga investitsiyalarni jalb qilish ($I=0,25-0,32$), texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirish ($TI=0,15-0,2$), eksport salohiyatini kuchaytirish ($E=0,21-0,26$) va yangi ish o'rinlari yaratish ($IO=0,13-0,18$) orqali yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish asoslangan;

O'zbekiston hududlari iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zaro

bog'liqligini ifodalovchi ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etishning shart-sharoitlarni o'rganish asosida ularning faolligini oshirish nazariy-uslubiy jihatdan o'rganilgan;

erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi va boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi mexanizmlarni tadqiq etishning uslubiy jihatlari asoslangan;

erkin iqtisodiy zonalar mamlakatda tashkil etilgan zamonaviy korxonalarning faoliyatini rag'batlantirish borasidagi institutsional iqtisodiy nazariyaga oid qarashlar davlat ahamiyatiga molik investitsion loyihalarni tanlab olishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini baholash mezonlari orqali uslubiy jihatdan takomillashtirilgan;

iqtsodiy islohotlar sharoitida erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishni muvofiqlashtirish asosida ularning iqtisodiy tabiati, institutsional va biznes muhiti xususiyatlari jozibadorligini oshirishga doir ilmiy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Tadqiqot natijalarining ishonchiligi foydalanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlaridan olinganligi, boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi hamda tegishli xulosa va tavsiyalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish, ularning o'rini kengaytirishning nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan xulosa va takliflar mavzu bo'yicha uslubiy ma'lumotlarni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalarning o'rini kengaytirishning nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha hududiy dastur va prognozlarni ishlab chiqish, sohaga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, sohani samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanilmoqda.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalarning o'rini kengaytirishning nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish" tushunchasining mazmunini mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish va samaradorligini ta'minlash, iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda

kengaytirilgan mustaqillikka va boshqaruvning erkin rejimini ta'minlashning uzviy omili jihatidan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan foydalanilgan. Mazkur taklifning amaliyotiga joriy etilishi natijasida talabalarda mamlakatda investitsion faollikni oshirishning ustuvor yo'nalishlari, hududiy investitsiya strategiyasi va undan samarali foydalanish jarayonlarini tartibga solish usullari tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish asosida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etishning umumiy tamoyillarini mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi ma'muriy-tashkiliy tadbirlar, zamonaviy infratuzilma hamda ta'lim va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash choralari o'zaro muvofiqlashtirish jihatidan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan «Yashil iqtisodiyot» nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan. Mazkur taklifning amaliyotiga joriy etilishi natijasida talabalarda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etishning umumiy tamoyillarini mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi ma'muriy-tashkiliy tadbirlar, zamonaviy infratuzilma hamda ta'lim va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash choralari o'zaro muvofiqlashtirish jihatidan takomillashtirish yuzasidan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

Sirdaryo viloyatida erkin iqtisodiy zonalariga investitsiyalarni jalb qilish ($I=0,25-0,32$), texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirish ($TI=0,15-0,2$), eksport salohiyatini kuchaytirish ($E=0,21-0,26$) va yangi ish o'rinlari yaratish ($IO=0,13-0,18$) orqali yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-son Farmonini ishlab chiqishda foydalanilgan (Innovatsion rivojlanish agentligining 2024-yil 16-oktabrdagi 01-11/3850-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishida ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi aloqalar hamda ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash borasida yuqori natijalarga erishish imkonini berdi. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududiy investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish borasidagi vazifalarni takomillashtirish, mamlakatga investitsiyalar jalb qilishni faollashtiruvchi chora-tadbirlarni belgilash imkoni yaratilgan;

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-maydagi "Respublika hududlarida Yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 313-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Innovatsion rivojlanish agentligining 2024-yil 16-oktabrdagi 01-11/3850-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlashda erkin iqtisodiy

zonalar faoliyatini uzoq muddatli istiqbol ko'rsatkichlari o'rtasida o'zaro muvofiqligini ta'minlash imkonini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqotning asosiy natijalari 8 ta ilmiy-amaliy konferensiyada muhokama qilindi, jumladan 1 ta xalqaro va 3 ta respublikamiz miqyosida anjumanlardir.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 10 ta ilmiy ish, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shu jumladan, 3 ta respublika va 1 ta nufuzli xorijiy jurnallarda, shuningdek, ilmiy amaliy konferensiya to'plamlarida 6 ta ma'ruza tezisi chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 133 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **"Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida mamlakat raqobatbardoshligini oshirish nuqtai nazaridan erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining nazariy-konseptual asoslari tadqiq etilgan, EIZni tashkil etishning huquqiy va institutsional asoslari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish tajribalari o'rganib chiqilgan.

Muallif ta'rifi bo'yicha – "Erkin iqtisodiy zona kengaytirilgan mustaqillikka ega bo'lgan, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishga mo'ljallangan, belgilangan hudud doirasida xizmat ko'rsatuvchi institutsional infratuzilmaga ega bo'lgan ishlab chiqarish maydonlari joylashadigan qismi bo'lib, unda iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi erkin huquqiy va ma'muriy rejim mavjud bo'lib, hududning raqobatbardoshligini ta'minlovchi milliy makondir".

Muallif o'z tadqiqotida EIZ mamlakat investitsion salohiyatini oshirish, yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali mazkur mamlakat moliyaviy imkoniyatlarini oshirishni ko'rsatib bergan. Bu o'ziga xoslik dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasida erkin iqtisodiy zona mavjud ilg'or tajriba va investitsiyalarni jalb qilish asosida mamlakatda takrorlaydigan iqtisodiy element vazifasini bajarib kelayotgani yaqqol ifodalanadi. Bu orqali esa mamlakatlarda qulay savdo-sotiq, bojxona, pul-kredit va moliyaviy imtiyozlar belgilangan iqtisodiy va geografik mavqega ega bo'lgan mintaqa rivojlanishiga qaratilgan

obyekt sifatida erkin iqtisodiy zona faoliyatiga ham ustuvorlik berishi tadqiq etilgan (1-rasm).



1-rasm. Erkin iqtisodiy hududlar tarkibi⁹

Bundan kelib chiqqan holda, jumladan, EIZ faoliyati samaradorligini oshirish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish asosida mamlakat moliyaviy imkoniyatlarini erkin iqtisodiy zonalar faolligini ta'minlash asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bu borada mamlakatga kiritilayotgan investitsiyalar mamlakatlarning doimiy rivojlanishini ta'minlaydi hamda quyidagi vazifalarni hal etishda yordam beradi: moliyaviy resurslarni jamlash hisobiga shaxsiy tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, yangi korxonalarni sotib olish, biznesning yangi yo'nalishlarini egallash.


Olib borilgan tadqiqotlar natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish asosida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish umumiy tamoyillarining nazariy jihatlarini mamlakat raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishning nazariy va amaliy asoslari nuqtai nazaridan takomillashtirilgan (2-rasm).

Bilvosita guruhlar–raqobatbardoshlik, yangi texnika texnologiya bilan qurollangan korxonalarning o'zaro raqobatbardoshligini kuchaytirib, boshqa firmalarning ilg'or texnologiyalarni qo'llashga, yangi texnologiyalar yaratish uchun izlanishlar olib borishga majbur qilishi.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida mamlakatlarda investitsiyalardan samarali foydalanishning ahamiyati beqiyos bo'lib, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish va rivojlanishiga aloqador vazirlik va idoralar faoliyati uyg'unligini ta'minlash, bu boradagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga asoslangan innovatsion tamoyillarga asoslangan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik jarayonlar o'zaro bog'liqligi modernizatsiyalash, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish talab etadi.

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



2-rasm. EIZ faoliyatini tashkil etish umumiy tamoyillarining mamlakat raqobatbardoshligini oshirishdagi o'zaro aloqadorligi¹⁰

Bevosita guruhlar–iqtisodiy samaradorlik ya'ni erkin iqtisodiy zona tasarrufiga kiruvchi korxonalarning yangi texnologiya tufayli zamonaviy, raqobatbardosh, sifatli, xaridorgir tovarlar ishlab chiqarishi (xizmat ko'rsatishi);

Mamlakatlarning iqtisodiy o'sishini rivojlantirish samaradorligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, ishlab chiqarish, innovatsion-texnik maqsadli yo'nalishlarni quyidagicha guruhlandi (1-jadval).

Tadqiqotlarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, xorij kapitalini, xususan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish investitsiyalashda eng samarali vosita hisoblanadi. Aynan chet el investitsiyalari mamlakatda iqtisodiy va texnologik jarayonini harakatlantiruvchi omili bo'lib xizmat qiladi. Investitsiyalar barcha sanoati rivojlangan mamlakatlarga dunyoning qolgan mamlakatlari oldida ustunlik yaratgan holda, ularning raqobat mavqeni oshirishda muhim rol o'ynadi. Raqobatdagi ustunlikning ba'zi mamlakatlar uchun tabiiy resurslarning kamligi, boshqalari uchun noqulay jug'rofiy joylashuv va qariyb har biri uchun ishchi kuchi taqchilligi yoki qimmatligi bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlari va kamchiliklarini kompensatsiyalashga katta hajmdagi

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

sarmoya qo'yilmalari va ularning samarali ishlatilishi bo'yicha muallifning yondashuvlari asoslangan, muallif tomonidan Xitoy, Polsha va boshqa davlatlarning tajribalari o'rganildi, bu davlatlarda iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda oshishini ta'minlashga xizmat qilgan omil ham, aynan uning ochiqligi, sog'lom imiji va investitsion jozibadorligi bo'yicha tajribalar tadqiq qilingan.


1-jadval

Mamlakatlarning iqtisodiy o'sishini rivojlantirish samaradorligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi maqsadli yo'nalishlar¹¹

| |
|---|
| I. Iqtisodiy yo'nalishlar |
| 1. Mamlakatlarni kompleks rivojlantirish va raqobatni oshirish, % |
| 2. Iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarini rivojlantirish, % |
| 3. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash |
| 4. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish |
| 5. Mamlakatlarning bozor infratuzilmasini rivojlantirish, modernizatsiyalash |
| II. Ijtimoiy yo'nalishlar |
| 1. Aholini ijtimoiy himoyalash "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimini rivojlantirish |
| 2. To'liq, umumli va munosib mehnat bilan bandlikni ta'minlash orqali aholining daromadini oshirish, % |
| 3. Aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish borasidagi ishlarni samarali amalga oshirish, % |
| 4. Tadbirkorlikni rivojlantirish asosida kambag'allik va ishsizlik darajasini kamaytirish, % |
| 5. Kambag'al va ishsiz fuqarolarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish |
| III. Ishlab chiqarish yo'nalish |
| 1. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini oshirish, % |
| 2. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, % |
| 3. Iqtisodiy samaradorlikning aniq, to'g'ri va optimal ko'rsatkichlaridan foydalanish, % |
| 4. Mahsulot va xizmat ko'rsatish raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan miqdor va sifat o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlash |
| 5. Turlicha xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining natijadorligini oshirish |
| IV. Innovatsion-texnik yo'nalish |
| 1. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish % |
| 2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish % |
| 3. Investitsion muhitning rivojlanishiga erishish |
| 4. Innovatsion jarayonlar boshqaruv konsepsiyasini rejalashtirish |
| 5. Innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi uchun investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investorlar va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash |

3-rasmda, globallashtirish jarayonida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutni kamaytirish hamda investitsion jozibadorlikni oshirishda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) muhim rol o'ynamoqda. Ularni samarali tashkil etish esa, ilmiy asoslangan, tizimli va innovatsion yondashuvni talab qiladi. EIZlarga nazariy-uslubiy yondashuvda asosiy e'tibor ularni tashkil etish va boshqarishda tizimli tahlilga qaratiladi. Bunda zonalarining yaratilishidan tortib, ularning boshqaruv mexanizmlari, iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy ta'sirigacha bo'lgan barcha bosqichlar chuqur o'rganiladi. Bu metodologik yondashuv mavjud muammolarni aniqlash va ularni samarali hal qilish imkonini beradi. Zonalar faoliyatining samaradorligini oshirish faqat tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bilan cheklanmay, balki iqtisodiy natijalar va raqobatbardoshlik darajasining o'zaro bog'liqligini aniqlashni ham taqozo etadi.

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



3-rasm. Erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va kutilayotgan natijalari¹²

¹² Muallif ishlatmadi

Shunga muvofiq, EIZlarning iqtisodiyotdagi o'rnini tizimli model asosida baholanadi va bu boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning asosiy iqtisodiy maqsadi – hududiy va milliy darajada raqobatbardoshlikni oshirish, investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni diversifikatsiya qilish va eksport salohiyatini kuchaytirishdir. Shu bilan birga zonalarni boshqarishda markazlashmagan, erkinlashtirilgan modelni joriy etish investorlar uchun qulay muhit yaratib, qarorlar qabul qilishni tez va moslashuvchan qiladi. Bu nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga ham zamin yaratadi.


Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirishni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari”** deb nomlanib, unda EIZlarni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy yo'li sifatida baholangan, erkin iqtisodiy zonalarini takomillashtirish mexanizmining shakllanishiga uslubiy yondashuvlar keltirilgan, mamlakatlarni innovatsion rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarini o'rnini kengaytirishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

4-rasmdagi nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish asosida erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) faoliyatini tashkil etishning umumiy tamoyillari mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga bevosita ta'sir etuvchi kompleks yondashuvni shakllantiradi. Bu yondashuvning asosiy mazmuni EIZni tashkil etish jarayonida investitsiyalar oqimini rag'batlantirish, samarali boshqaruvni ta'minlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ma'muriy-tashkiliy va institutsional choralarni o'zaro muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirishga asoslanadi.

Eng avvalo, investitsiyalarni jalb qilish yo'nalishida xorijiy investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari, qulay huquqiy muhit, barqarorlik kafolatlari yaratilib, mahalliy tadbirkorlar uchun ham rag'batlantiruvchi mexanizmlar yo'lga qo'yiladi.

Bu esa kapital oqimini faollashtirib, iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi va natijada mamlakatning umumiy raqobatbardoshligi oshadi. Shuningdek, EIZda samarali boshqaruvni tashkil etishda soddalashtirilgan ruxsatnoma tartibi, “yagona darcha” tamoyili asosidagi xizmatlar ko'rsatish, mustaqil faoliyat yurituvchi avtonom boshqaruv tuzilmalari orqali tezkor va shaffof boshqaruv tizimi vujudga keltiriladi. Bunday ma'muriy yondashuv tadbirkorlik muhitini erkinlashtirib, tashqi va ichki investitsiyalar uchun ochiq iqtisodiy makon yaratadi.

O'zbekistonda maqsadga yo'naltirilgan davlat investitsiya dasturlari har bir viloyatning o'ziga xos iqtisodiy, tabiiy, ijtimoiy, demografik shart-sharoitlari, mehnat munosabatlari va siyosiy barqarorligini inobatga olgan holda, investitsiyalarni jalb qilishga mamlakatlarga joylashtirish va yo'naltirish masalalarini samarali hal etishga qaratilmoqda. Mamlakatlarda investitsiyalarni samarali joylashtirish va ulardan oqilona foydalanish iqtisodiyotni tizimli qayta qurish va modernizatsiyalashga, ichki va tashqi investitsiyalarni mamlakatlar o'rtasida ratsional taqsimlashga hamda joylashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda.



4-rasm. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish tamoyillari¹³

¹³ Muallif ishlarimasi.

5-rasmda keltirilgan Sirdaryo viloyatida yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish masalalari bir necha o'zaro bog'liq omillar asosida hal etilmoqda. Eng avvalo, erkin iqtisodiy zonalariga investitsiyalarni jalb qilish ($I=0,25-0,32$) muhim iqtisodiy ko'rsatkich sifatida e'tirof etiladi. Bu nisbat hududga kirib kelayotgan investitsiya oqimining hajmini va uning iqtisodiyotga ta'sir darajasini aks ettiradi.


Yuqori darajadagi investitsiyalar o'z navbatida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi, yangi texnologiyalarni joriy qilishga zamin yaratadi hamda umumiy iqtisodiy faollikni oshiradi. Shunday qilib, investitsiyalarni jalb qilish darajasi Sirdaryo viloyatining iqtisodiy o'sishidagi asosiy katalizator sifatida xizmat qiladi.

Bu jarayonda texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirish ($TI=0,15-0,20$) muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion faollik va ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali viloyat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Ushbu indikator Sirdaryo iqtisodiyotining yangi texnologik yechimlar va ilmiy izlanishlarga qanchalik ochiq ekanligini, shuningdek, innovatsion loyihalar orqali iqtisodiy samaradorlikni yaxshilash imkoniyatlarini o'lchaydi. Innovatsiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq ushbu ko'rsatkich yuqori darajaga yetganda, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi mahsulot va xizmatlarning paydo bo'lishi, eksport imkoniyatlarining kengayishi, hamda yuqori malakali ish o'rinlari yaratish ko'lamining oshishi kutiladi.

Eksport salohiyatini kuchaytirish ($E=0,21-0,26$) esa hudud iqtisodiyotining global bozorga integratsiyasi va tashqi savdo imkoniyatlarining kengayishini ifodalaydi. Eksport hajmining oshishi milliy iqtisodiyotga valyuta tushumlarini ko'paytirish, mahsulotlarning xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash, va iqtisodiy tizimni diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Erkin iqtisodiy zonalar yordamida eksport salohiyatini kengaytirish viloyat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga va eksport bozorlarida raqobatbardoshlikni mustahkamlashga imkon yaratadi.

Yangi ish o'rinlari yaratish ($IO=0,13-0,18$) ko'rsatkichi esa iqtisodiy o'sishning ijtimoiy yo'nalishini belgilaydi. Bandlik darajasining oshishi aholining daromad darajasini ko'tarish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va mahalliy bozorni mustahkamlashga yordam beradi. Ish o'rinlari yaratish iqtisodiy faollikning kengayishi va yangi sarmoyalar samaradorligining ko'rsatkichidir. Shu bilan birga, bu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi viloyatda inson kapitalining rivojlanayotganligini ham bildiradi, chunki yangi ish joylari ko'pincha malakali kadrlarni jalb qilish va ularni saqlashga asoslanadi.

Muallif tomonidan EIZ faoliyati samaradorligini kengaytirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ta'siri baholangan. EIZlarni boshqarish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar va ularning korrelyatsion, regression tahlilini amalga oshirish iqtisodiy ko'rsatkichlarni matematik modellar orqali prognozlashtirishga bag'ishlangan ilmiy asarlarini o'rgangan holda, erkin iqtisodiy zonalarini boshqarish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar omillar kelgusi yetti yilga ekonometrik modellar orqali ilmiy jihatdan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.



5-rasm. Sirdaryo viloyatida erkin iqtisodiy zonalar orqali iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni oshirish ko'rsatkichlari¹⁴

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

Ushbu omillarning natijaviy omilga ta'sirini aniqlash uchun korrelyatsion-regression tahlil usullaridan foydalanish mumkin. Bu esa juft korrelyatsiya koeffitsiyentlarini hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Bu usul, bizga, bir-birini takrorlaydigan va natijaviy omil bilan kuchsizroq bog'lanishda bo'lgan omillarni tuzilayotgan ekonometrik modelga kiritmaslik imkonini beradi.

EIZ faoliyati samaradorligini oshirish ekonometrik modelini tuzish uchun unga ta'sir etuvchi omillar belgilanishlari amalga oshirildi (2-jadval).

2-jadval

Erkin iqtisodiy zonalarini boshqarish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar¹⁵

| Natijaviy ko'rsatkich: Yalpi ichki mahsulot hajmi, mlrd. so'm – Y | |
|---|----------------|
| Omillar | Belgi |
| Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (mlrd. so'm) | X ₁ |
| Soliq va bojxona imtiyozlari (mlrd so'm) | X ₂ |
| Qurilish ishlari (mlrd.so'm) | X ₃ |
| Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm) | X ₄ |

Tadqiqot ishida ko'p omilli ekonometrik modeldagi qatnashadigan omillar sifatida – natijaviy belgi etib, yalpi ichki mahsulot hajmi (mlrd. so'm), asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (mlrd. so'm), imtiyozlar soliq va bojxona (mlrd so'm), qurilish ishlari (mlrd.so'm), sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm), jami 4 ta omil belgi tanlab olindi.

So'ngra korrelyatsion-regression usullar yordamida ko'p omilli ekonometrik model tuziladi. Omillar bog'liqligining ekonometrik modelini aniqlash uchun ko'p omilli korelyatsion-regression tahlil usulidan foydalaniladi. Ishda samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun quyidagi ekonometrik modeldan (ko'p omilli

$$\text{regressiya tenglamasidan) foydalanildi } Y = a_0 + \sum_{i=1}^m (a_i x_i), \quad (1)$$

Chiziqli model;

Bunda,

a_0 – ozod had;

y – yalpi ichki mahsulot hajmi;

x_i –ta'sir etuvchi omillar;

a_i – ko'p omilli model parametrlari; (iq 1,2,3....n);

n – tanlangan omillar soni.

Berilgan yqf (x_1, x_2, \dots, x_n) bog'liqlikni topish zarur. Ushbu bog'liqlikdagi parametrlarni aniqlashda eng kichik kvadratlar usuli qo'llaniladi, quyidagi jadvalda keltirilgan (3-jadval)

Ko'p omilli korrelyatsion bog'lanishning xususiyati shundaki, uning regressiya tenglamasida bir necha muhim va mohiyatli omillar ishtirok etadi. Ekonometrik model yordamida istiqbol funksiyalarini tuzishda 2010-2024-yillardagi statistik ma'lumotlardan foydalanib, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati

